

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
326 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilivich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	

ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR SOLIQ REJIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI

Boltayev Jo‘rabek Yusofovich

mustaqil izlanuvchi

e-mail: Jorabek83.j@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida erkin iqtisodiy hududlar (EIH)ning tashkil etilishi, faoliyat yuritish shakllari va soliq rejimlari tahlil qilingan. Xususan, AQSh va boshqa davlatlarda EIHlar eksport, bandlik va innovatsion rivojlanish omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqolada texnoparklar, tadbirkorlik zonalar va tashqi savdo zonalarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilib, ularning iqtisodiyotga ijobiy ta’siri ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda EIHlar samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribani tatbiq etish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Erkin iqtisodiy hududlar, soliq rejimi, xorijiy tajriba, investitsiya muhit, tadbirkorlik zonalar, tashqi savdo zonalar, innovatsion rivojlanish, institutsional muhit, global qiymat zanjiri.

Abstract: This article analyzes the organization, forms of activity and tax regimes of free economic zones (FEZ) based on the experience of developed and developing countries. In particular, in the USA and other countries, Eih was considered as a factor of exports, employment and innovative development. The article highlights the features of technoparks, business zones and foreign trade zones and shows their positive impact on the economy. The necessity of applying foreign experience to improve the effectiveness of the EIA in Uzbekistan is also substantiated.

Keywords: free economic zones, tax regime, foreign experience, investment climate, entrepreneurship zones, foreign trade zones, innovative development, institutional environment, global value chain.

Аннотация: В данной статье анализируется организация, формы деятельности и налоговые режимы свободных экономических зон (СЭЗ) на основе опыта развитых и развивающихся стран. В частности, в США и других странах Eih рассматривались как фактор экспорта, занятости и инновационного развития. В статье освещаются особенности технопарков, предпринимательских зон и зон внешней торговли и показано их положительное влияние на экономику. Также обоснована необходимость применения зарубежного опыта для повышения эффективности ОВОС в Узбекистане.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, налоговый режим, зарубежный опыт, инвестиционный климат, зоны предпринимательства, зоны внешней торговли, инновационное развитие, институциональная среда, глобальная цепочка создания стоимости.

KIRISH

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni jadallashtirishda erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, EIHlar soliq va bojxona imtiyozlari, soddalashtirilgan ma‘muriy tartiblar, maxsus infratuzilma hamda investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan yondashuvlar orqali iqtisodiy o‘shishning muhim vositasiga aylangan. Ushbu maqolada AQSh, Xitoy, Indoneziya, Irlandiya kabi mamlakatlarning EIHlar tajribasi tahlil qilinib, ularning eksport salohiyati, bandlik darajasiga ta’siri, hamda maxsus soliq rejimlari o‘rganiladi. Ayniqsa, AQShdagi texnoparklar, tashqi savdo zonalar va



tadbirkorlik hududlari misolida EIHLar modelining muvaffaqiyatli jihatlari tahlil qilinadi. Mazkur tahlillar asosida O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar samaradorligini oshirish, xorijiy tajribani hisobga olgan holda soliq rejimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqish asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pol Krugman fikricha, erkin iqtisodiy hududlar kabi maxsus iqtisodiy makonlar ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir hududda to'planishiga, ya'ni aglomeratsiya effektiga olib keladi. U transport xarajatlarining kamayishi va bozor yaqinligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab bergan. Bu EIHLarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning tez sur'atlarda rivojlanishini tushuntiradi [1].

Maykl Porterning «milliy raqobat ustunligi» konsepsiyasiga ko'ra, EIHLar mahalliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. U EIHLarni klasterlashgan infratuzilma va innovatsion muhit asosida rivojlanayotgan makon deb baholaydi [2].

Jeffrey Sachs EIHLarning muvaffaqiyati ularning iqtisodiy emas, balki institutsional asoslariga – korrupsiyaning past darajasi, samarali boshqaruv, soddalashtirilgan tartib-taomillarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar O'zbekistonda EIHLarni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'ladi [3].

Richard Baldwin EIHLarni global qiymat zanjirlari (GVC) kontekstida ko'rib chiqadi. Uning nazariyasiga ko'ra, EIHLar xorijiy sarmoya jalb qilish va transmilliy kompaniyalarni jalb qilish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro ishlab chiqarish tizimlariga integratsiyalashga xizmat qiladi [4].

Justin Yifu Lin rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun EIHLar orqali sanoatni diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi. U iqtisodiy hududlarni davlat tomonidan strategik rejalashtirish va qo'llab-quvvatlashni muhim deb hisoblaydi [5].

A.Ahsan va J.Gibson[6] Buyuk Britaniyaning erkin iqtisodiy zonalarida (EIZ) beriladigan soliq imtiyozlari – daromad solig'i, korporativ soliq va investitsiya kreditlari –ning xususiy sektor investitsiyalariga ta'sirini panel ma'lumotlari yordamida o'rganadilar. Ular soliq stavkalarini 5 % ga pasaytirish investitsiya oqimlarini o'rtacha 7 % ga ko'paytirishini aniqlaydi. Mualliflar EIZ'larda soliq darajalarini nafaqat past saqlash, balki ma'lumotlarning shaffof vaqtlarda e'lon qilinishi ham investor ishonchini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada soliq rejimlari va erkin iqtisodiy hududlar (EIH) faoliyatini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanilgan. Birinchidan, taqqoslash (komparativ) tahlil usuli orqali AQSh, Xitoy, Indoneziya, Irlandiya kabi davlatlarning EIH tajribalari o'zaro solishtirib tahlil qilingan. Bu orqali har bir mamlakatda EIHLarning soni, eksport ko'rsatkichlari va bandlik darajalari orasidagi bog'liqlik aniqlangan.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli yordamida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatiga oid raqamli ma'lumotlar (jadval shaklida) o'rganilgan va ular asosida natijalar chiqarilgan. Uchinchi jihat sifatida, deskriptiv (tasviriy) metod orqali har bir mamlakatdagi EIHLarning tashkil etilishi, soliq va bojxona imtiyozlari, institutsional mexanizmlari izchil tavsiflab berilgan.

Shuningdek, maqolada nazariy-tahliliy yondashuv asosida xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholangan, muammolar va takliflar ilgari surilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilishi va amal qilishi amaliyotini bozor munosabatlari yuksak darajada rivojlangan turli mintaqalarning milliy iqtisodiyotlari misolida ko'rib chiqamiz. Buning asosida jahon xo'jaligi tizimida mazkur iqtisodiy tuzilmalar tashkil etilishi va faoliyatidagi farqlar va umumiy belgilarni aniqlashga harakat qilamiz.

Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning amaldagi holati, eksport hajmi va bandlik darajasiga oid ma'lumotlarni qo'yidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning amaldagi holati [7].

Mamlakat	Erkin iqtisodiy hududlarning soni	Eksport	Bandlik darajasi, ming kishi
AQSh	266	200,0	400
Xitoy	190	120,0	360
Indoneziya	115	42,0	200
Filippin	100	27,0	907
Tailand	30	40,7	120
Hindiston	13	13,0	87
Shri-Lanka	9	12,0	150
Bangladesh	6	12,0	120
Tayvan	5	61,0	90

Dunyoning ayrim mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasini tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar AQSh, Xitoy, Indoneziya mamlakatlarida eng ko'p tashkil etilgan bo'lib, shunga mos ravishda ushbu hududlarda eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar hajmi, aholining bandlik darajasi yuqori bo'lgan. Tayvan, Pokiston, Koreya Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasi ancha past bo'lib, oxirgi yillarda ushbu mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarni ustuvor yo'nalishlarida erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning xususiyatlariga ko'ra tahlilini 1-jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlarini savdo, servis, texnik tatbiq etish, erkin bojxona zonalarini tashkil etish, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat-ishlab chiqarish, savdo zonalarini tashkil qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning erkin iqtisodiy hududlarida amaldagi maxsus soliq va bojxona rejimlari asosida soliq preferensiyalari va imtiyozlari amal qiladi, tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatishda to'siqlar mavjud emas. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ushbu hududlarida soliq preferensiyalari va imtiyozlari tizimidan keng foydalaniladi, xorijiy investorlar uchun alohida moliyaviy imtiyozlar tatbiq etiladi.

G'arbiy Yevropadagi erkin iqtisodiy zonalar tizimida Irlandiyaning Shennon (ingl. Shannon) zonasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu zonaning xususiyati shundaki, u urushdan keyingi Yevropaning erkin iqtisodiy zonalar modeli namunasiga aylandi va uning amaliyoti barcha qit'alar mamlakatlarida o'rganilib, tatbiq etishga harakat qilinmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida uch turdagi EIZlar mavjuddir: tashqi savdo zonalarini, tadbirkorlik zonalarini va texnoparklar.

Masalan, texnoparklar butun AQSh hududida joylashgan bo'lib birgalikda "Silikon vodiylari" (ingl. Silicone valleys) nomi bilan mashhur. Dunyodagi birinchi ilmiy park 1950-yilda AQShda tashkil etilgan. Bugungi kunda ularning soni 170 taga yetdi, hududi esa 60-260 gektar maydonni tashkil etadi. AQShning eng yirik texnoparki Silikon vodiysi bo'lib, unda jahonning kompyuterlar va boshqa hisoblash uskunalari ishlab chiqarishning 20 foizi mujassamlashgan.

Qo'shma Shtatlar iqtisodiyotida texnoparklarning ikkita turi mavjud: xususiy va davlat texnoparklari. Ilmiy-texnik parklar davlat organlarining ruxsati bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rejadagi mavjud vaziyatga muvofiq tashkil etiladi (ishsizlikning yuqori darajasi, hududning rivojlanmaganligi, infratuzilma bilan bog'liq kamchiliklar va h.k.).

Texnoparklarni moliyalashtirishda turli xil manbalardan, jumladan, universitetlar va xayriya jamiyatlari mablag'lari, shuningdek, mahalliy hokimiyatlar, federal idoralar va vazirliklar, sanoat korxonalari mablag'lari va o'z mablag'laridan foydalaniladi.

AQShda texnoparklarning faoliyati milliy innovatsion kompaniyalarga, asosan, venchur kompaniyalar, ixtirochilar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqayotgan olimlarga imtiyozli yordam



ko'rsatishga qaratilgan. Ushbu yordam ishlab chiqarish va ofis binolarini ijaraga berish, laboratoriya jihozlarini, maslahat xizmatlarini taqdim etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish, shuningdek, tashkil etilgan venchur kompaniyalariga kredit olishga yordam berishda o'z ifodasini topadi. Bu kompaniyalar faoliyatining ustuvor yo'nalishi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hisoblanadi.

Sanoat korxonalari, o'z navbatida, texnoparklar bilan bunday hamkorlik natijasida olimlar, tadqiqotchilar va talabalarni ishga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda texnoparklar ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyasiga ko'maklashib, milliy yuqori texnologik ishlab chiqarish bazasini yaratdi.

AQShning butun hududi bo'ylab yuqori texnologik, fan sig'imli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan 40 dan ortiq yirik tumanlar mavjud va ular to'rt turdagi dasturlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadi:

- texnik ko'mak, shu jumladan, inshootlar va jihozlardan foydalanish imkoniyati;
- kadrlar bo'yicha yordam ko'rsatish, ya'ni ilmiy va texnik xodimlar bilan ta'minlashga ko'maklashish;
- qurilish maydonchalari va inshootlarini tayyorlash uchun litsenziyalar va subsidiyalar shaklida amaliy yordam ko'rsatish;
- moliyaviy yordam berish, ayniqsa, risk darajasi yuqori bo'lgan kapitaldan foydalanish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun soliq imtiyozlari, xodimlarni texnik o'qitish uchun kreditlar, subsidiyalar taqdim etish.

Shunday qilib, AQShning texnoparklari ishlab chiqarishda texnik ishlanmalardan amaliy foydalanish jarayonini tezlashtiradigan, sanoat va ilm-fanning integratsiyasini ta'minlovchi tuzilmalardir. Ular zamonaviy ishlab chiqarishning fan sig'imlik ko'rsatkichlarini oshiradi va milliy iqtisodiyotning yuqori texnologiyalar bazasini takomillashtiradi.

Tadbirkorlik zonalar (ingl. Enterprise zones) ichki hududiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdirlar. Ular mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar davrida paydo bo'lib, qoloq hududlarda kichik va o'rta biznesni jonlantirishga qaratilgan.

Tadbirkorlik zonalarining maydoni 2,5-5 km²ni tashkil etadi. Ularning chegara to'siqlari bo'lmaydi, u yerda joylashgan kompaniyalar faqat maqomi bilan ajralib turadi.

AQShda uch xil tadbirkorlik zonalar mavjud: federal, shtat va mahalliy darajadagi zonalar. Ularning har bir turi, mos ravishda, federal, shtat va mahalliy darajadagi hukumat idoralarining qarorlari bilan tashkil etiladi. Hukumatning ushbu darajalarida uch turdagi tadbirkorlik zonalar uchun harakatlar dasturi tuziladi.

AQShda jami 1400 tadan ortiq tadbirkorlik zonalar mavjud bo'lib, ular mamlakatning 700 ta shahri va shahar atrofidagi tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik zonalarining soni bu darajada ko'pligi davlat organlari tomonidan Amerika firmalariga beriladigan turli xil imtiyozlar bilan izohlanadi: hujjat yuritishning soddalashtirilgan tartibi, atrof-muhit muhofazasi va xavfsizlik standartlariga pasaytirilgan talablarning belgilanishi, qurilish va ta'mirlash ishlari uchun to'lanadigan soliqlarga besh foizlik chegirmalar belgilash, kapital qiymati o'sishiga solinadigan soliqni bekor qilish, har bir qo'shimcha yollangan ishchi uchun kompaniyalarga soliq imtiyozlari berish (har bir ishchi uchun 2 ming AQSh dollarigacha). Ushbu imtiyozlarning barchasi federal darajasida taqdim etiladi. Ammo shtatlar darajasida ham imtiyozlar mavjud, shu jumladan, shtatiga qarab korxona foyda solig'iga ellik foizlik chegirma, asosiy kapitalga, uskunalar va qurilish materiallari sotish solig'i uchun yuz foizlik chegirmalar belgilangan.

Tashqi savdo zonalar bo'jxona, fiskal va moliyaviy rejimlar nuqtayi nazaridan milliy hududning bir qismi bo'lgan, lekin davlat tashqarisida deb hisoblanadigan savdo yoki savdo-ishlab chiqarish zonalaridir. Ularda xilma-xil xizmatlar ko'rsatiladi: import qilinadigan tovarlarni saqlash, saralash, qadoqlash, qayta ishlash, mahalliy yoki xorijiy butlovchi qismlardan ayrim turdagi mahsulotlarini yig'ish, zonaga olib kiriladigan yoki ishlab chiqariladigan mahsulotlar asosida ishlab chiqarishning yangi turlarini tashkil etish kiradi. Ushbu zonalar, odatda, kirish portlari yaqinida yoki ularning hududida joylashgan bo'ladi.

AQShda ikki xil zona mavjud: umumiy va maxsus zonalar. Birinchi zonalarda ko'plab ishtirokchilar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Umumiy tashqi savdo zonasiga, odatda, distribyutorlik markazini tashkil etish uchun barcha transport vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan



omborxona shaklidagi binolar va tovarlarni saqlash uchun ijaraga beriladigan maydonlar kiradi. Aksariyat zonalarda ularning ishtirokchilari o'z xo'jaligini joylashtirishi mumkin bo'lgan sanoat parklar maydonchalari ham mavjud. Zonadagi kommunal xizmatlarni ko'rsatish davlat kompaniyalari uchun qo'llaniladigan tariflar asosida amalga oshiriladi.

Umumiy tashqi savdo zonolari, odatda, AQSh hukumati yoki mahalliy hokimiyatlar yoxud iqtisodiy rivojlanish agentliklari tomonidan moliyalashtiriladi.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, erkin iqtisodiy zonalarda soliq imtiyozlari taqdim etilishi EIZning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur, ammo bu yetarli emas. Ishbilarmonlik muhitining boshqa tarkibiy qismlari, xususan, biznesni yuritish uchun ma'muriy to'siqlarning mavjudligi yoki yo'qligi bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammo O'zbekistonda hali beri yechim topmasligi sababli erkin iqtisodiy zonalarining investorlari uchun yaratilgan imtiyozli rejim ma'muriy imtiyozlarning muayyan to'plamini o'z ichiga qamrab olishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

- EIZ hududida ishlaydigan xorijiy investorlar va fuqarolar uchun soddalashtirilgan viza rejimini belgilash;
- EIZ hududida xorijiy banklarning filiallarini tashkil etishga ruxsat berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
2. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
3. Sachs, J. (2003). Institutions Matter, but Not for Everything. *Finance and Development*, 40(2), 38–41.
4. Baldwin, R. (2016). *The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization*. Harvard University Press.
5. Lin, J. Y. (2012). *New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy*. World Bank Publications.
6. Ahsan, A., & Gibson, J. (2008). How do tax incentives affect investment? The case of the UK Free Zones. *Oxford Economic Papers*, 60(4), 685–708.
7. Kuziyev R. Erkin iqtisodiy hududlarni vujudga kelishining nazariy jihatlari va mamlakat taraqqiyoti uchun zarurligi. // "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnali, 2021-yil, 4-son.
8. Мельник Д. Налоговый менеджмент. - М.: Финансы и статистика, 2002.
9. Миляков Н. Налоги и налогообложение: Практикум. - М.: Финансы и статистика, 2001. – 208 с.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100